

## NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH

**Karimjanova Ra'noxon Maxmudovna**

Namangan davlat texnika universiteti  
katta o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Namangan viloyatida xizmatlar bozorini rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyalarining roli va ahamiyati o'rganilgan. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar, zamonaviy marketing yondashuvlari va hududiy xususiyatlar asosida xizmatlar sohasi rivojining dinamikasi tahlil qilingan. Namangan viloyatining turli hududlarida xizmatlar hajmining o'sish sur'atlari solishtirilib, innovatsion strategiyalarni qo'llash orqali xizmatlar sifatini oshirish hamda mijozlar talabini qondirish imkoniyatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida xizmatlar sektorida innovatsion marketingni samarali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmatlar bozori, innovatsion marketing, raqamli texnologiyalar, Namangan viloyati, xizmatlar sohasi, strategiya, raqobatbardoshlik.

### **Аннотация**

В данной статье исследуется роль и значение инновационных маркетинговых стратегий в развитии рынка услуг в Наманганской области. В ходе исследования были проанализированы динамика развития сферы услуг с учетом цифровых технологий, современных маркетинговых подходов и региональных особенностей. Сравнены темпы роста объема услуг в различных районах области и выявлены возможности повышения качества услуг и удовлетворения потребностей клиентов за счет применения инновационных стратегий. На основе полученных данных предложены практические рекомендации по эффективному использованию инновационного маркетинга в секторе услуг.

**Ключевые слова:** рынок услуг, инновационный маркетинг, цифровые технологии, Наманганская область, сфера услуг, стратегия, конкурентоспособность.

### **Abstract**

This article examines the role and significance of innovative marketing strategies in the development of the service market in the Namangan region. The research analyzes the dynamics of service sector growth based on digital technologies, modern marketing approaches, and regional characteristics. Growth rates of service volumes in various districts of the region are compared, and the potential for improving service quality and meeting customer needs through the use of innovative strategies is identified. Based on the findings, practical recommendations are provided for effectively applying innovative marketing in the service sector.

**Keywords:** service market, innovative marketing, digital technologies, Namangan region, service sector, strategy, competitiveness.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida xizmatlar bozori mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Xizmatlar sohasi nafaqat iqtisodiy o‘rnatishni ta’minlash, balki bandlik darajasini oshirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu sektorni jadal rivojlantirish davlatning iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytiradi hamda uni global iqtisodiy jarayonlarga muvaffaqiyatli integratsiyalash imkonini beradi. Ayniqsa, innovatsion yondashuvlar va raqamli marketing vositalaridan foydalanish xizmatlar sifati va mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish, yangi segmentlarga kirib borish hamda brend qiymatini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat rahbari tomonidan soha rivojiga doir qator farmoyish va qarorlar qabul qilinib, xizmatlar bozorini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish hamda innovatsion yechimlarni joriy etish vazifasi belgilangan. Shu bois, xizmatlar sektorida innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o‘rnatish va raqobatbardoshligini ta’minlashda dolzarb masalaga aylangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmoyishlar va qarorlar mamlakatimizning xizmatlar bozorini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, sohada raqamlashtirish va zamonaviy marketing vositalarini qo‘llash xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda mijozlarning talablarini qondirish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion marketing strategiyasi bo‘yicha ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Kotler P. va Keller K. L. marketingning innovatsion usullarini o‘rganib, ularning xizmat ko‘rsatish sohasida mijozlar bilan interaktiv munosabatlarni yaxshilashdagi rolini ta’kidlaydilar [2]. Shuningdek, X. Hamidov va S. Mirzaev xizmatlar bozorida raqamli marketing vositalarining samaradorligini tahlil qilib, innovatsion yondashuvlarning bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatganlar [3]. Shu bilan birga, innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish zarurligi, xususan, Namangan viloyati sharoitida xizmatlarni rivojlantirishda yangi marketing texnologiyalarining qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar mavjud [4].

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil metodlaridan foydalangan holda Namangan viloyatidagi xizmatlar bozorining innovatsion marketing vositalaridan foydalanish darajasi hamda ularning samaradorligi o‘rganildi. Asosiy ma’lumotlar so‘rovnomalar, chuqur intervyular va kuzatuvlar asosida to‘plandi. Miqdoriy usulda olingan ma’lumotlar statistik dasturlar yordamida qayta ishlanib, foydalanuvchilarning xizmatlardan qoniqish darajasi, innovatsion marketing vositalarining samaradorligi

aniqlashtirildi. Shuningdek, xizmatlar sohasining hududiy xususiyatlari va infratuzilmaviy ko‘rsatkichlari ham chuqur tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, Namangan viloyatida xizmatlar sektorini rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish ijobiy samara bermoqda. Jumladan, raqamli platformalar orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar soni va sifati ortib bormoqda, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn reklama vositalari esa yangi mijozlarni jalb qilishda asosiy vositaga aylangan. Hududiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar ko‘rsatish sohasida mijozlar bilan muloqotni avtomatlashtirish, individual yondashuv, doimiy monitoring va tahlil kabi elementlar raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Hududiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion marketing strategiyasidan foydalanish xizmat ko‘rsatish sohasida mijozlar bazasining o‘sishi va xizmat sifatining yaxshilanishiga olib kelgan. Masalan, mahalliy kichik biznes subyektlari onlayn marketing vositalari yordamida o‘z mahsulotlarini samarali targ‘ib etish imkoniyatiga ega bo‘lishdi [5]. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion yondashuvlar, jumladan, mijozlar bilan aloqalarni avtomatlashtirish, mijozlarga individual yondashuv, xizmat sifatining doimiy monitoringi sohaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2020–2024-yillar davomida Namangan viloyatida xizmatlar sohasi barqaror va jadal rivojlanib, umumiy hajm 8 928,7 mlrd so‘mdan 43 090,6 mlrd so‘mga yetib, 4,8 barobar o‘shishga erishdi. Bu davrda Namangan shahri 2024-yilda 9 042,8 mlrd so‘mlik xizmatlar hajmi bilan viloyat umumiy hajmining qariyb 21 foizini tashkil etib, yetakchi hudud sifatida ajralib turdi. Chust, Uychi va To‘raqo‘rg‘on tumanlarida ham xizmatlar sohasi eng tez sur‘atlarda o‘sgan bo‘lsa, Mingbuloq va Norin tumanlarida nisbatan pastroq o‘shish qayd etildi. Hududlar kesimida xizmatlar hajmidagi farqlar ko‘p jihatdan infratuzilma, savdo markazlari, xizmat ko‘rsatish korxonalarini va transport tarmoqlarining mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, aynan shu omillar xizmatlar sohasining o‘shish sur‘atiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

### 1-jadval

#### Namangan viloyati hududlar kesimida xizmatlar hajmi (mlrd.so‘m)<sup>1</sup>

	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
<b>Namangan viloyati</b>	<b>8 928,7</b>	<b>11 619,5</b>	<b>14 693,4</b>	<b>17 884,3</b>	<b>43 090,6</b>
Namangan sh.	3 565,8	4 306,3	5 551,6	7 049,4	9 042,8
Mingbuloq	362,0	485,9	608,3	728,5	872,8
Kosonsoy	470,9	648,6	821,7	941,4	1 159,6
Namangan t	496,6	631,6	800,0	954,3	1 172,2
Norin	402,1	540,8	655,6	788,0	982,4
Pop	588,7	771,8	949,1	1 120,8	1 393,3
To‘raqo‘rg‘on	565,9	770,4	933,6	1 156,2	1 406,2
Uychi	499,2	723,4	970,8	1 123,8	1 368,3
Uchqo‘rg‘on	479,9	597,5	736,4	884,9	1 087,0
Chortoq	499,1	663,7	807,2	983,3	1 222,1
Chust	564,7	875,1	1 102,0	1 281,1	1 556,7
Yangiqo‘rg‘on	433,9	604,3	757,1	872,6	1 082,5

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Namangan viloyatida xizmatlar hajmi 2020-yilda 8 928,7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 43 090,6 mlrd so‘mga yetgan, bu esa xizmatlar sohasida jadal rivojlanish borligini ko‘rsatadi. Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishida Namangan shahri yetakchi bo‘lib, 2020-yilda 3 565,8 mlrd so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 9 042,8 mlrd so‘mga yetgan. Eng tez o‘sayotgan tumanlardan Chust tumani 2020-yildagi 564,7 mlrd so‘mdan 2024-yilda 1 556,7 mlrd so‘mga, ya‘ni 2,75 barobar o‘sgan. Uychi tumani 2,74 barobar, To‘raqo‘rg‘on tumani esa 2,49 barobar o‘shishga erishgan. Viloyatda xizmatlar sohasi sust rivojlanayotgan hududlardan Mingbuloq tumani va Norin tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu tumanlarda o‘shish bo‘lsa-da, boshqa hududlarga qaraganda biroz sustroq.

Viloyatda yashash va ovqatlanish xizmatlari 2020-yilda 189,8 mlrd so‘mdan 2024-yilda 18 171,8 mlrd so‘mga ko‘tarilib, jadal o‘shishga erishdi. Bu misli ko‘rilmagan o‘shish yangi mehmonxonalar, restoranlar, ovqatlanish tarmoqlari va turizm infratuzilmasining rivojlanishiga bog‘liq bo‘ldi. Transport xizmatlari 2020-yilda 1 632,1 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 4 978,4 mlrd so‘mga yetib, qariyb 3 barobarga o‘tdi. Bunda avtotransport xizmatlari asosiy ulushni egallagan — 2024-yilda 4 355,4 mlrd so‘mga yetdi. Savdo xizmatlari 2020-yildagi 3 038,9 mlrd so‘mdan 2024-yilda 8 110,9 mlrd so‘mga ko‘tarilib, bu sohaning doimiy talab ostida ekani va chakana hamda ulgurji savdo tizimlarining rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

## 2-jadval

### Namangan viloyati xizmatlar turlari hajmi, mlrd.so‘m<sup>1</sup>

№	Xizmat turlari	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1	Xizmatlar – jami	8 928,7	11 619,5	14 693,4	17 884,3	43 090,6
1.1	Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar	505,1	574,3	745,9	942,2	1 240,1
1.2	Moliya xizmatlari	1 489,0	1 909,6	2 483,4	2 990,6	3 514,0
1.3	Transport xizmatlari	1 632,1	2 216,0	2 624,7	3 369,3	4 978,4
1.3.1	Shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 530,9	2 003,9	2 395,8	2 936,0	4 355,4
1.4	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	189,8	254,4	400,8	551,8	18 171,8
1.5	Savdo xizmatlari	3 038,9	3 710,5	4 590,5	5 437,7	8 110,9
1.6	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	226,8	348,7	417,8	451,7	601,8
1.7	Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	402,4	575,8	743,2	943,8	1 480,3
1.8	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	157,6	257,7	335,8	422,8	735,8
1.9	Ijara va lizing bo‘yicha xizmatlar	194,9	226,3	292,4	281,5	369,9
1.10	Kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	226,9	340,3	410,2	511,1	925,6
1.11	Shaxsiy xizmatlar	514,2	730,2	941,8	1 151,2	1 637,7
1.12	Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	101,8	139,7	176,1	176,8	233,2
1.13	Boshqa xizmatlar	249,2	335,7	530,8	653,7	1 091,1

<sup>1</sup> Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari

Viloyatda barqaror o‘shish kuzatilgan sohalar moliyaviy xizmatlar, axborot va aloqa xizmatlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari tashkil qildi. Viloyatda xizmatlar tarkibida nisbatan sekin o‘sayotgan yo‘nalishlar — ijara va lizing xizmatlari: 2020-yilda 194,9 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda 369,9 mlrd so‘mga oshgan. Me‘morchilik, muhandislik va texnik tahlil xizmatlarida o‘shish mavjud bo‘lsa-da, boshqa yo‘nalishlarga nisbatan past sur‘atda rivojlanmoqda.

Namangan viloyatida xizmatlar sohasi 2020–2024-yillarda sezilarli darajada kengayib, ayniqsa yashash va ovqatlanish, transport, savdo, moliya hamda aloqa xizmatlarida yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Bu hududdagi turizm, ichki talab, infratuzilma va biznes muhitining faol rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim sohalar — ijara, texnik tahlil va muhandislik xizmatlarida nisbatan sust o‘shish qayd etilib, bu yo‘nalishlarda qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari zarurligini ko‘rsatadi.

Xizmatlar sohasida innovatsion marketing strategiyalarini tanlash va ularni moslashtirish zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir xizmat turi o‘ziga xos funksional xususiyatlari, iste‘molchi ehtiyojlari va bozor muhitiga qarab individual strategik yondashuvni talab qiladi. Shu bois, marketing strategiyasini tanlashda xizmat ko‘rsatish jarayonining texnologik rivojlanish darajasi, hududiy infratuzilma, demografik tarkib, shuningdek, iste‘molchilarning raqamli savodxonlik darajasi e‘tiborga olinishi lozim [2].

Innovatsion marketing strategiyalarini mahalliy sharoitlarga moslashtirish esa mavjud texnologiyalar va vositalarni xizmat ko‘rsatish amaliyotiga integratsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bunda raqamli platformalar, sun‘iy intellekt asosidagi mijoz tahlili tizimlari, onlayn xizmat kanallari va mijoz tajribasiga asoslangan xizmat dizayni asosiy vositalar sifatida namoyon bo‘ladi [6]. Ayniqsa, xizmatlar sifati, narx siyosati, qulay joylashuv va innovatsion reklama vositalarining uyg‘unligida qo‘llaniladigan kompleks yondashuvlar xizmatlarning bozor qiymatini oshirish va mijoz sadoqatini shakllantirishga xizmat qiladi [7].


### 3-jadval

#### Xizmatlar sohasida innovatsion marketing strategiyalarini tanlash va moslashtirish<sup>1</sup>

Yo‘nalish	Tavsiya etiladigan strategiya	Qo‘llash mexanizmi
<b>Raqamlashtirish</b>	Raqamli marketing (Digital Marketing)	Onlayn xizmatlar portallarini yaratish, ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama, mobil ilovalar
<b>Shaxsiylashtirish</b>	Shaxsiylashtirish strategiyasi	Mijozlarga yo‘naltirilgan takliflar, "big data" asosida xatti-harakatlarni tahlil qilish
<b>Turizm va ovqatlanish</b>	Tajriba marketingi	Mahalliy madaniyat va gastronomiyani tajriba sifatida taklif etish
<b>Innovatsion xizmatlar</b>	Yangi xizmatlar differensiasiyasi	Elektron xizmatlar (masalan, telemeditsina, onlayn ta’lim, fintech xizmatlari) joriy etish
<b>Hamkorlik asosida rivojlanish</b>	Kross-marketing (ko‘p tomonlama sheriklik)	Xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar o‘rtasida hamkorlik paketlari yaratish (masalan, mehmonxona + transport + ovqatlanish)

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Natijada, xizmatlar sektorida innovatsion marketing strategiyalarini to'g'ri tanlash va ularni kontekstual tarzda moslashtirish korxonalariga bozor ulushini kengaytirish, mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshirish hamda xizmatlar sohasida barqaror o'sishni ta'minlash imkonini beradi [8].



**1-rasm. Viloyatda xizmatlar sohasida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari<sup>1</sup>**

Viloyatda xizmatlar sohasini rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish — hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu strategiyani samarali amalga oshirish bozor holatini chuqur tahlil qilish, maqsadli auditoriyalarni aniqlash, zamonaviy raqamli texnologiyalarni tanlash va ularga mos innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Har bir xizmat turi uchun alohida yondashuv asosida ishlab chiqilgan strategiyalar xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojini qondirish va ularning qoniqish darajasini kuchaytirishga

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

xizmat qiladi. Eng muhimi, strategiyaning izchil monitoringi va doimiy moslashtirilishi uni samarali va raqobatbardosh holatda ushlab turishga imkon yaratadi. Shu bois, xizmatlar sohasida innovatsion marketing strategiyalarini bosqichma-bosqich va tizimli tarzda ishlab chiqish va amalga oshirish viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

#### 4-jadval

#### Xizmatlar sohasida innovatsion marketingni joriy qilish yo‘llari<sup>1</sup>

	Xizmat turlari	Marketing strategiyasini joriy qilish yo‘llari
1.	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	turizm mavsumida onlayn bron qilish tizimlarini yo‘lga qo‘yish, Google Maps va TripAdvisor kabi platformalarda faol bo‘lish.
2.	Savdo xizmatlari	elektron tijorat (e-commerce) platformalari, mobil to‘lov tizimlari, cashback va aksiya dasturlarini kengaytirish.
3.	Transport xizmatlari	mobil ilova orqali taksi, avtobus, yo‘lovchi tashish xizmatlarini raqamlashtirish.
4.	Moliyaviy xizmatlar	fintech startaplarni qo‘llab-quvvatlash, mobil banking xizmatlarini kengaytirish.
5.	Ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari	onlayn kurslar, telemeditsina xizmatlarini joriy etish

Namangan viloyatida xizmatlar sohasini innovatsion marketing yondashuvlari orqali rivojlantirish hozirgi raqamli transformatsiya sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir xizmat turi bo‘yicha individual strategiyalarni ishlab chiqish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish soha samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Birinchidan, yashash va ovqatlanish xizmatlarida turizm mavsumida onlayn bron qilish tizimlarini joriy qilish va bu xizmatlarni xalqaro platformalarda (TripAdvisor, Google Maps) targ‘ib qilish orqali mehmonlar soni va foydalanuvchi qulayligi oshadi. Bu esa hududning turistik jozibadorligini oshirib, marketingning raqamli kanallarini faallashtiradi.

Ikkinchidan, savdo xizmatlari sohasida elektron tijorat platformalari (e-commerce)ni rivojlantirish, mobil to‘lov tizimlarini tatbiq etish va keshbek hamda aksiya dasturlarini keng joriy qilish mijozlarning sodiqligini oshirish bilan birga sotuv hajmini sezilarli darajada ko‘paytiradi. Bu strategiya mijozga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi.

Uchinchidan, transport xizmatlarida mobil ilovalar orqali taksi, avtobus va yo‘lovchi tashish xizmatlarini raqamlashtirish foydalanuvchi tajribasini soddalashtiradi. GPS texnologiyalari asosida marshrutlar optimallashtiriladi, bu esa xizmat sifatining oshishiga olib keladi.

To‘rtinchidan, moliyaviy xizmatlarda innovatsion marketing fintech startaplarni qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Mobil banking xizmatlarining

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

kengaytirilishi bank-mijoz aloqasini mustahkamlaydi va operatsion xarajatlarni kamaytiradi.

Beshinchidan, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarida onlayn ta'lim platformalari va telemeditsina xizmatlarini keng tatbiq etish aholining xizmatlarga bo'lgan kirishuvchanligini oshiradi, ayniqsa chekka hududlar uchun muhim yechim sanaladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Namangan viloyatida xizmatlar sohasini raqamlashtirish orqali innovatsion marketing strategiyalarini joriy qilish bozorning ehtiyojlariga moslashish, iste'molchilarning ehtiyojini qondirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu asosda har bir xizmat turi bo'yicha aniq bosqichli yondashuv ishlab chiqilishi va monitoring tizimi yaratilishi zarur. Xizmatlar bozorini rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga katta hissa qo'shadi. Namangan viloyati tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish xizmat sifatini yaxshilash va mijozlar bazasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsion marketing strategiyalarini joriy etish xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Kotler, P., Keller, K. L. Marketing Management. 15th Edition. Pearson, 2016.
2. Hamidov, X., Mirzaev, S. "Raqamli marketing vositalarining xizmatlar bozorida qo'llanilishi," Marketing va menejment jurnali, 2021, №4.
3. Saidova, N. "Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishida innovatsion marketing strategiyalarining roli," Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2022, №2.
4. Tahliliy hisobotlar, Namangan viloyati xizmatlar bozorining rivojlanishi, 2023.
5. Chaffey, D., Ellis-Chadwick, F. Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. Pearson, 2022.
6. Zeithaml, V. A., Bitner, M. J., Gremler, D. D. Services Marketing: Integrating Customer Focus Across the Firm. McGraw-Hill, 2018.
7. Afuah, A. Innovation Management: Strategies, Implementation, and Profits. Oxford University Press, 2003.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. GOCT 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**